

## MILLIY ESTRADA ANSAMBILDA BAS GITARA CHOLG‘USINING O‘RNI

Kamolov Umid Komilovich

Qashqadaryo viloyati Qarshi shaxri Ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi, Estrada  
ijrochiligi, Bas gitara fani o‘qituvchisi. +998994548240

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Milliy Estrada Ansambilda bas gitara cholg‘usining o‘rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ansambil, estrada, san'at, bas gitara, milliy estrada, doira.

### Kirish:

Estrada san‘ati kundun-kunga rivojlanib, o‘z muxlislari sonini ko‘paytirib bormoqda. Hozirgi kunda "estrada" nomi bilan yuritilayotgan musiqa namunalari tobora ko‘payib bormoqda. Ansambil fransuscha dan olingan bo‘lib birgalikda degan ma‘noni anglatadi. Ijrochilar soniga qarab Ansambillar duet (2 kishi), trio yoki teaset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kintet (5 kishi), sekstet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) larga bo‘linadi.

Estrada milliy ansambiliga kiruvchi asosiy cholg‘ular: Doira, Tanbur, Saksafon, Truba, Ritm Gitara, Akustik gitara, Klassik gitara, Baraban. Kilavish va bas gitara Estrada san‘ati ko‘p yillardan beri jahin va o‘zbek san‘ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. O‘zbek san‘atiga estrada va milliy estradaning kirib kelish jarayoni katta boy tarixga ega.

Estrada (ispancha — taxtasupa), estrada san‘ati — 1) keng ma‘noda — ko‘ngilochar, ommabop badiiy (abadiy, musiqiy, raqs, tomoshaviy va boshqalar) janr va shakllarning umumiy ifodasi; 2) tor ma‘noda — sahnaviy professional san‘at turi. Rossiya va boshqalar ba‘zi mamlakatlarda Estrada Angliyada myuzikxoll, Fransiyada varyete, kafeshantan, kabare, AQShda shou, revyu kabi atamalar bilan yuritiladi. Estradaning kelib chiqishi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lsada, u muayyan (tijoratomabop) san‘at turi sifatida 19-asrda Yevropa yirik shaharlarining demokratik ijtimoiymadaniy muhitida yuzaga kelgan. Estradaning asosiy shakli — maxsus joylarda, muntazam ravishda o‘tkaziladigan Estrada



konsertidir. U bir nechta (yoki yakka) artist (soʻz ustasi, xonanda, raqqos, aktyor va boshqalar)ning badiiy tugal, turfa mazmundagi kichik chiqishlaridan iborat boʻlib, ifoda vositalarining loʻnda va yorqinligi, oʻziga xosligi, ishtirokchilarning tomoshabin bilan bevosita muloqotda boʻlishi bilan ajralib turadi. Estrada tomoshalari baʼzan konferansye birlashtirgan mavzuli dastur asosida tuziladi. [1]Yevropada Estrada tomoshalari dastlab kafe va restoranlarda, keyinchalik moslashtirilgan teatr binolari va boshqalar joylarda oʻtkazilgan. Ularda soʻz ustalari, qoʻshiqchilar, raqqos va raqqosalar, shuningdek, akrobat, koʻz bogʻlovchilar ishtirok etgan. Hozirda estrada sahnalarida monolog, felyeton, hajviy hikoya kabi nutq janrlari, Estrada (milliy, bal va boshqalar) raqsyasi, kuplet va Estrada qoʻshigʻi, koʻpgina sirk turlari (akrobatika, jonglyorlik, fokus va boshqalar), teatr miniatyurasi, qoʻgʻirchoqbozlar chiqishlari, pantomima va boshqalar mavjud. Oʻzbekistonda (boshqa Sharq mamlakatlarida boʻlgani kabi) Estradaning rivojlanishi quyidagi koʻrinishlarda boʻlgan: bir tomondan unda anʼanaviy sanʼat namunalari sahna talablariga moslashtirib oʻzgartirilgan yoki milliy janrlar negizida yangi sahna turlari yaratilgan (M. Turgʻunboyeva Usta Olim bilan birgalikda ijod qilgan "Paxta", "Pilla" kabi ommaviy sahna raqslari). Ikkinchi tomondan Oʻzbekiston Estradasi chet el sanʼati shakl va uslublari (mas, jaz, estrada orkestri, myuzikxoll)ni oʻzlashtirishi bilan boyidi. 1956-yildan Oʻzbek estrada teatri, keyinchalik Oʻzbek davlat estrada birlashmasi (1996-yilgacha) faoliyat koʻrsatgan. Hozirda Oʻzbekistonda Estrada sanʼatini rivojlantirish, Estrada jamoalari hamda yakka ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish kabi vazifalar "Oʻzbeknavo" birlashmasiga yuklatilgan. [2] Estrada oʻquv yoʻnalishi sifatida maxsus taʼlim tizimiga kiritilgan. 1996-yildan Toshkent estrada kolleji, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi va boshqalar sanʼat (musiqasi) oʻquv yurtlarida Estrada ftlari faoliyat koʻrsatmoqda (yana qarang Miniaturalar teatri, Ommabop musiqasi). Estrada sanʼati Oʻzbekistonda 1950-yillardan boshlab rivojlandi. Uning birinchi asoschilari Botir Zokirov va Enmark Salixovlardir. Shu kungacha sanʼatning bu yoʻnalishida juda katta yutuqlarga erishildi. 1958-yili Oʻztele-radio qoshida estrada orkestri tashkil qilindi. Kompozitorlar Sh. Ramazanov, I. Akbarov, E. Salixov, M. Leviyev, M. Burxonov, E. Qalandarov, V. Milov va boshqalar avval xalq folklor qoʻshiqlarini estrada yoʻnalishiga moslashtirib, keyinchalik esa oʻzlari shu yoʻnalishda ijod qila boshladilar. Ularning yozgan qoʻshiqlarini Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Yunus



To'rayev, Ra'no Sharipova, Muhabbat Shamayeva va boshqa xonandalar kuylab ijod etganlar. Bu paytda mualliflik qo'shiqlari bobida yetuk asarlardan biri Botir Zokirov ijrosidagi Mutal Burxonovning "Maftun bo'ldim" asari bo'ldi. Uning o'sha yillar ijro qilgan "Go'zal qiz", "Arab tangosi", "Muhabbat", "Jayron" kabi turli millat qo'shiqlari bugungi kun uchun ham namunaviy bo'lib turgan yangicha ohang tizimi milliy estrada qo'shiqchiligidagi noyob topilmalardandir. [3]Hozirda turli uslubiy yondoshish orqali ushbu qo'shiq ijrosiga yosh estrada qo'shiqchilarimiz murojaat etayotganligi fikrimizni tasdiqlaydi.70-yillarning boshlariga kelib ommaviy musiqa san'atida yangi yo'nalish - bit-musiqa ommalasha boshlanadi. Orkestr jamoasini faoliyatini saqlagan holda Botir Zokirov va Yunus To'rayevlar hamkorligida «Toshkent myuzik-xoll» ni tashkil topdi. Toshkent myuzik-xolli o'z yo'nalishida adabiy mazmun asosida, dramatik spektakllar orqali qiziqarli, rang-barang konsert dasturlarini tuzish va jamoaviy tarzda namoyish etish maqsadlarini amalga oshiradilar. Teatrlashtirilgan ssenariylar asosida konsert namoyishlarini tashkil etadilar. Eng muhimi o'zbek estrada musiqasi ijrochiligi amaliyotida vokal-cholg'u ansambllari tuzila boshlanadi, estrada xonanda va sozandalarining yangi avlodi tarbiyalanadi. Myuzik-xoll yosh xonandalar uchun haqiqiy estrada maktabi vazifasini o'taydi. E. Salixov, A. Kalvarskiy, E. Qalandarov, G. Xoliqov kabi kompozitorlar bu yo'nalishda samarali ijod qiladilar. Estrada san'atida yangi guruhlar va ijrochilar avlodi shakllanadi. Buning zaminida albatta o'zbek estrada simfonik orkestrlarining samarali faoliyati, respublikada zamonaviy estrada musiqa san'atini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi. O'zbek estrada musiqasi shakllanishi jarayonida an'anaviy xalq musiqa namunalari muhim zamin bo'lgan. Bunda, asosan, ularning raqsbopligi, yengil ohang usullarida ijro etilgani qo'l kelgan. Ayni payta bu holat o'zbek estrada musiqasining milliylik asosini ham ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'ldi desak, to'g'ri bo'ladi. O'zbek milliy estrada qo'shiqchiligi tamal toshini qo'ygan Botir Zokirov va uning izdoshlari, zamondoshlari Yunus To'rayev, Staxan Rahimov, Alla Iyoshpe va boshqalar o'zbek estradasida milily va nomilliy kuylash uslubini sintezlashtirish natijasida uni shaklan va mazmunan uyg'unlashtirishga erishganlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgan darvdan boshlab yaratilayotgan qo'shiqlar Vatan, Istiqlol, tabiat, do'stlik va muhabbat kabi mavzularda yozilgan. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov raisligida Milliy estrada san'atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi





tuzildi. Kengash badiiy-musiqiy jamoalar oldiga bir qancha asosiy vazifalar va talablar qo'ydi.

Bas gitara — gitaraning bir turi. Elektrik bas yoki shunchaki bas deb ham ataladi. Bas gitara odatda panjalar bilan chalinadi. Bas gitaraning ko'rinishi elektrogitaraning ko'rinishiga o'xshaydi. Lekin bas gitaraning dastasi uzunroq bo'ladi. Bas gitaraning to'rt, besh, olti va sakkiz torli turlari mavjud. Bas gitaraning to'rt torli turi eng keng tarqalgan. To'rt torli bas gitara kontrabas kabi sozlanadi. Bunda bas gitaraning torlari oddiy gitaraning to'rt past simidan bir oktava past qilib sozlanadi. Bunday sozlangan bas gitara simlari ochiq chalinganda pastdan birinchi simdan sol (G), ikkinchi simdan re (D), uchinchi simdan lya (A) va to'rtinchi simdan mi (E) notasi eshitiladi. Elektrogitara o'xshab bas gitara ham jonli ijro paytida kuchaytirgich orqali radiokarnaylarga ulanadi.[4]

#### **Xulosa:**

1960-yillardan beri bas gitara ritm chalishda kontrabasni o'rini olib kelyapti. Bas gitarachilar turli xil bas kuylarni chalsa ham, musiqaning deyarli barcha turida bas gitarachining roli bir: garmoniyani aniqlashtirish va ritmni belgilash. Bas gitaradan rock, metal, pop, punk rock, country, reggae, blues va jazz kabi turli xil musiqa stillarida qo'llaniladi. Bas gitara yana jazz, fusion, Latin va boshqa rock hamda metal musiqa stillarda solo chalish uchun ishlatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.Nazaryan, G.Israilov ORKESTR SINFI (Estrada cholg'u ijrochiligi) Toshkent-2017[1]
- 2.Klitin S, Estrada, Londin-1987.[2]
- 3.B.Madrimov Musiqa tarixi Toshkent-2018[3]
- 4.N.Alimdjanova Musiqa adabiyoti Toshkent-2019[4]